



ZAMONAVIY TA'LIM RIVOJIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR: DUAL HAMDA INKLYUZIV TA'LIMNING AHAMIYATI

Sarvar Samar o'g'li Mannonov,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 2507-guruh talabasi

Ilmiy rahbar : Nilufar Dalibayevna Djurayeva,

O'zbekiston tarixi kafedra mudiri, professor

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, dual ta'lim hamda inklyuziv ta'limning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interaktiv ta'lim usullarining ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, hukumatimizning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari va xalqaro maydonda erishilgan bir qator yutuqlar ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar : dual ta'lim, inklyuziv ta'lim, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetensiya, COVID-19, barqarorlik.

Сарвар Самарович Маннонов,

Узбекский государственный университет мировых языков

Студент факультета перевода, группа 2507

Научный руководитель: Нилуфар Далибаевна Джуроева,

Заведующая кафедрой истории Узбекистана, профессор



АННОТАЦИЯ

В данной научной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется роль и значение инновационных технологий, дуального и инклюзивного образования в развитии современной системы образования. В исследовании рассматривается влияние цифровых технологий, информационно-коммуникационных средств и интерактивных методов обучения на повышение качества и эффективности образования. Также освещаются реформы, проводимые правительством в сфере образования, и ряд достижений, получивших признание на международной арене.

Ключевые слова: дуальное образование, инклюзивное образование, инновационные технологии, профессиональная компетентность, COVID-19, устойчивость.

Sarvar S. Mannonov,

Uzbekistan State University of World Languages

Student, Faculty of Translation, Group 2507

Academic Supervisor: Nilufar D.Djurayeva,

Head of the Department of History of Uzbekistan, Professor

ABSTRACT

This scientific article analyzes, from a theoretical and scientific perspective, the role and importance of innovative technologies, dual education, and inclusive education in the development of the modern education system. The study examines the role of digital technologies, information and communication tools, and interactive teaching methods in improving the quality and effectiveness of education. In addition, the reforms carried out by the government in the field of education and a number of achievements recognized at the international level are highlighted.



Index Terms: dual education, inclusive education, innovative technologies, professional competence, COVID-19 sustainability.

Mavzuning dolzarbligi:

Zamonaviy ta'lim rivojida innovatsion texnologiyalar, xususan dual va inklyuziv ta'lim modellarining integratsiyasi global ta'lim tizimlarining dolzarb ehtiyojlaridan biriga aylandi. Nazariy va amaliy bilimlarni parallel birlashtirish asosida tashkil etiladigan dual ta'lim O'zbekistonda mehnat bozorining talablariga mos kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim esa nogironligi bo'lgan bolalar va ijtimoiy zaif guruhlarining ta'limga teng huquqlarini ta'minlash orqali BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (4-maqсад) talablariga javob beradi, bu pandemiya davrida masofaviy ta'lim texnologiyalari (AI, VR) rivoji bilan yanada kuchaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion texnologiyalar (masalan, LMS platformalari va adaptiv o'quv dasturlari) ta'lim sifatini 25-30% oshirishi mumkin, ammo dual va inklyuziv yondashuvlarsiz ijtimoiy tengsizlik kuchayadi. 2026-yilda O'zbekiston ta'lim strategiyasida dual va inklyuziv ta'lim modellari ustuvor yo'nalish bo'lib, xalqaro tajribani (Germaniya dual tizimi, Finlyandiya inklyuziyasi) mahalliy sharoitga moslashtirishni talab etadi. Dual ta'lim Germaniya professional ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Shuningdek, Avstriya, Shveysariya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda juda katta o'rin tutmoqda. Dual ta'lim – talabaga oliy o'quv yurtida ta'lim olish bilan birga o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish, malaka oshirish imkoniyatini beruvchi tizim. Bu ta'limda o'qishning ko'p qismi amaliyotda, ya'ni belgilangan bir korxonada o'tadi. Bugungi kunda respublikada 689 ta professional ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ularda 367 ming 293 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Bu tizimda 3–4 kurs talabalari korxonada o'rnatilgan eng zamonaviy dastgohlarda ishlashni o'rganishdan tashqari, mehnat jamoasi bilan yaqindan tanishishi, dual ta'lim bo'yicha olgan bilimni namoyon qilgan, o'zini yaxshi



tomondan ko'rsata olgan bitiruvchilar korxonaga ishga qabul qilinishida katta imtiyozga ega bo'lishi, ishga qabul qilinganda mehnat faoliyatiga oson kirishib ketishi mumkin[3]. So'nggi yillarda imkoniyati cheklangan bolalar uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularni sog'lom bolalardan ajratmagan holda ta'lim-tarbiya berish, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs bo'lib etishishlari va turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, maktablarda alohida yordamga muhtoj bolalar uchun inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch – korreksion sinflar faoliyati yo'lga qo'yilayotganligi buning yorqin dalilidir.

Dunyo hamjamiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, inklyuziv ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarni ta'limga o'rgatish va sog'lom odamlardan farq qilmagan holda teng huquq va imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'plab qonunlar joriy etilmoqda. Xususan, 1975-yilda "Maxsus tarbiyaga muhtoj shaxslar huquqlari to'g'risida" gi Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiyada ta'kidlanishicha: "Maxsus tarbiyaga muhtojlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqlari ularda tug'ilishi bilan mavjud bo'ladi. Maxsus tarbiyaga muhtojlikning kelib chiqishi, tabiati va jiddiylik darajasidan qat'iy nazar, fuqaro o'z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga egadir kim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqlariga ham egadir kim, shu bilan birga ular mumkin qadar to'laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega"[4]. 2021-yil 22-fevralda Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46- sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini modernizatsiya qilish davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olinmoqda, bu sohada sezilarli institutsional o'zgarishlar ro'y bermoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-sonli qarori alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish-tarbiyalash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha huquqiy bazani mustahkamladi. Ushbu hujjat doirasida 2020-2025-yillarga mo'ljallangan



inklyuziv ta'lim rivojlanish konsepsiyasi, uni joriy etish bo'yicha 2020-2021-yillarga xos "Yo'l xaritasi" hamda 2025-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan maqsadli indikatorlar ishlab chiqildi. Muhim jihati shundaki, "2022-2026-yillarga yo'naltirilgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da nogironligi bo'lgan fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga integratsiya qilish, jumladan inklyuziv ta'lim va bandlik tizimlarini takomillashtirish (66-maqsad), shuningdek, yosh avlod uchun sifatli va ochiq ta'limni ta'minlash, barcha ta'lim bosqichlarida mukammal bilim olish imkoniyatini yaratish hamda mintaqaviy miqyosda inklyuziv ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish (70-maqsad) kabi vazifalar belgilangan.

Metodlar va mavzuning o'rganilganlik darajasi:

Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, holislik tamoyillari asosida zamonaviy ta'lim rivojida innovatsion texnologiyalar: dual hamda inklyuziv ta'limning ahamiyati yoritilgan. Mavzu N.Atabayeva, N.Turg'unov, E.Parmanov, M.Abdulhamidova, Yu.Asatullayev, Z.Sadinova, M.Jo'rayeva, D.Inamov kabi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari:

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat nazariy bilim berishga, balki shaxsning amaliy ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirishga ham qaratilgan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, dual ta'lim mexanizmlarini rivojlantirish hamda inklyuziv ta'limni keng tatbiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Avvalombor, **dual ta'lim** tizimi ta'lim va ishlab chiqarishni birlashuviga, ta'lim oluvchi va ish beruvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirishga qaratilgan ta'lim modelidir. Unda o'quvchilar o'qish bilan birga ishlagan kunlari uchun haq to'lanadi va bu esa bitiruvchilar uchun ishga joylashish imkoniyatini yanada



oshiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida dual ta’lim shakli rasmiy ravishda 2021-2022-o‘quv yilidan joriy etila boshlandi. Buni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 29-martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida” qarori asosida amalga oshirilishi belgilandi — ya’ni shu qaror orqali professional ta’lim muassasalarida nazariy bilimlar ta’lim muassasasida, amaliyot esa korxonada o‘tkaziladigan dual ta’lim shakli huquqiy jihatdan asoslab berildi va 2021-2022-o‘quv yilidan amaliyotga joriy etildi[1].

Inklyuziv ta’lim - zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u jismoniy, aqliy, ruhiy yoki ijtimoiy imkoniyatlaridan qat’i nazar barcha ta’lim oluvchilar uchun teng sharoit yaratishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Ushbu ta’lim modeli maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan shaxslarni umumiy ta’lim muassasalariga integratsiya qilish orqali ularning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy faolligi va ta’lim olish huquqini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Inklyuziv ta’lim jarayonida ta’lim muhiti, o‘quv dasturlari, metodlar va baholash tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi. Bugungi kunda respublikamizda imkoniyati cheklangan bolalarga mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan 86 ta maktabda 22 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6 mingdan ortiq o‘quvchi, uy sharoitida esa 13 mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim oladi. Bundan tashqari, O‘zbekistonda 3 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2026-yilgacha 50% imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta’limga jalb etilishi rejalashtirilmoqda. Hududiy tahlillarga ko‘ra, inklyuziv ta’lim Qoraqalpog‘iston Respublikasida 44 ta, Andijon viloyatida 46 ta, Buxoro viloyatida 23 ta, Jizzax viloyatida 43 ta, Qashqadaryo viloyatida 37 ta, Navoiy viloyatida 17 ta, Namangan viloyatida 61 ta, Samarqand viloyatida 20 ta, Sirdaryo viloyatida 16 ta, Surxondaryo viloyatida 41 ta, Toshkent viloyatida 65 ta, Farg‘ona viloyatida 47 ta, Xorazm viloyatida 18 ta hamda Toshkent shahrida 52 ta umumiy o‘rta ta’lim maktablarida



joriy etilgan[2]. Bularning barchasi inklyuziv ta'limni keng yoyishga qaratilgan davlat dasturi edi.

Raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasidagi o'rni.

XXI asr sun'iy intellektlar va raqamli texnologiyalar davri. Barcha sohada texnologiyalar o'z o'rniga ega bo'lganidek, ta'lim sohasida ham o'zining sezilarli o'rniga ega. Raqamli platformalar, elektron darsliklar, masofaviy ta'lim tizimlari hamda sun'iy intellekt asosidagi vositalar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytirib, ta'limning ochiqligi va uzluksizligini ta'minlaydi. Sir emaski, yurtimizda COVID-19 pandemiyasi 2020-yilning 15-martida ilk bor kuzatilgan edi. Barcha davlat muassasalari va butun O'zbekistonda faoliyat yuritadigan tashkilotlar faoliyati vaqtincha to'xtatildi yoki bir qancha cheklovlar qo'yildi. Quvonarlisi shundaki, ta'lim sohasida hech qanday uzulishlar kuzatilmadi. Hukumat va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qaroriga muvofiq, onlayn darslar tashkillashtirildi va nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoda ta'lim onlayn shaklga o'tkazildi. Bu esa o'z-o'zidan raqamli texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojning keskin ortishiga sabab bo'ldi. Natija kutilganidek o'z samarasini berdi va XX-XXI asr "topilma"lari jamiyatdagi o'rnini yana bir pog'onaga ko'tarib oldi.

Ta'limdagi shaffoflik.

Ta'lim sohasiga yangicha qarashlar va undagi shaffoflikni ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan bir qancha dastur va hujjatlar ishlab chiqilib, uni keng ommaga taqdim etildi. Ular orasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'limda shaffoflikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonunidir. Unga muvofiq davlat imtihonlaridagi nazoratni kuchaytirish maqsadida ularga "Milliy Gvardiya" va hududiy uchastka maxsus xodimlari va zamonaviy elektron tekshiruv qurilmalari jalb etildi, eng muhimi imtihonlardagi "paravoz"larning faoliyatiga chek qo'yildi.

O'quvchi-talabalarni shaffof tarzda baholash to'g'risidagi davlat dasturi va tizimlari:



Kundalik.com – bu O‘zbekistonda jurnal va kundalik tizimi bo‘lib, u orqali o‘qituvchi baholarni kiritadi, o‘quvchilar uy vazifasini topshiradi va ota-onalar farzandining ta‘lim jarayonini onlayn tarzda kuzatib boradi. Bu dastur O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab respublikadagi maktablarda joriy etila boshlangan. Dastlab 2500 dan ortiq maktabda tatbiq etildi va bu dastur keyinngi yillarda to‘liq respublika hududlarini ham qamrab oldi. Shu bilan birga, **Hemis** onlayn platformasi ham oliy ta‘lim muassasalari uchun ma‘lumotlar bazasi va axborot tizimi bo‘lib, universitetlarda talabalar, kurslar, baholar, imtihonlar va ma‘lumotlarni boshqarish uchun ishlatiladi. Bu ham ta‘limni raqamlashtirishga, ma‘lumot almashish va boshqaruvni samaraliroq qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro maydonda erishilayotgan yutuqlar : ta‘lim sohasi misolida.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning biz kabi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashlari ortidan O‘zbekiston yoshlari bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Amaliy misol sifatida, o‘tgan yili Toshkent Prezident maktabi o‘quvchilari “**Zayed Sustainability Prize**” xalqaro tanlovida g‘olib bo‘ldilar. Ular ishlab chiqqan loyiha — yomg‘ir suvini to‘plash va uni toza ichimlik suvi darajasiga aylantirish tizimi — suv yetishmovchiligi muammosini hal qilishga amaliy yechim sifatida e‘tirof etildi. G‘olib bo‘lgan jamoa tarkibida Pahlavon G‘ulomov, Asilbek Ashrapov va ularning ustozlari Sohibxon Azizov bor edi. G‘oliblikni qo‘lgan kiritgan jamoaga 150 ming AQSh dollari miqdoridagi grant va O‘zbekiston Prezidenti nomidan avtomobil bilan taqdirlandi. Shuni aytishimiz mumkinki, raqamli texnologiyalar – ta‘lim sohasida bilim olish jarayonini yanada samarali, qulay va ochiq qiladi. Faqatgina ulardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish orqali o‘quvchilar global maydonda muvaffaqiyatga erishishlari va zamonaviy, bilimli, ajdodlarga munosib avlod bo‘lib shakllanishlari mumkin.

**Xulosa:**

Xulosa qilib aytganga, raqamli texnologiyalar ta'lim sohasini tubdan yangilash bilan birga, dual va inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunda dual ta'lim nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirsa, inklyuziv ta'lim esa har bir o'quvchining imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bilim olishiga va jamiyatdan uzilib qolmasliklariga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar ushbu ta'lim turlarini birlashtirib, yoshlarning ilmiy va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon bermoqda. Bu jarayonlar mamlakatimizda boshlangan **Uchinchi Renessans** g'oyalarining amaliy ifodasi bo'lib, zamonaviy, bilimli, tashabbuskor va raqobatbardosh avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtboshimiz aytganlaridek, Uchinchi Renessans poydevorini qurish va uni davom ettirish biz kabi yosh avlodning qo'lidadir!

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Uzbekistan.org.ua , 19-avgust 2024-yilda yaratilgan nashridan.
2. Uzconsulate-aktau.kz rasmiy saytidan olindi.
3. Toshqorayeva M. Dual ta'limning afzalligi nimada?// https://uza.uz/oz/posts/dual-talimning-afzalligi-nimada_592908. Murojaat sanasi: 18.01.2926
4. Sadinova Z. Mamlakatimizdagi inklyuziv ta'lim muammolari va ularni hal etish yo'llari// file:///C:/Users/User/Downloads/mamlakatimizdagi-inklyuziv-talim-muammolari-va-ularni-hal-etish-yo'llari.pdf
5. Jo'rayeva M. o'zbekistonda inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari //
6. Gazeta.uz rasmiy sayti , 2025-yil 14-yanvardagi nashri.
7. Uzdaily.uz, 16-yanvar 2025-yildagi nashri.
8. Zayedsustainabilityprize.com , On 14 January 2025.